

FAN:

GIDROMETRIYA

MAVZU  
05

Daryo va kanallar suv  
rejimi



NAZARALIYEV DILSHOD  
VALIDJANOVICH



Gidrologiya va  
gidrogeologiya kafedrası  
dotsenti

# Reja:

- Suv rejimi davrlari;
- Suv rejimi elementlari;
- Suv sathi.
- Postda suv sathini kuzatish. Ish doirasi va kuzatishlar vaqtি.

# Suv rejimi davrlari

Daryolar suv rejiminining  
yillik o'zgarishini  
xarakterli qismlari

ko'p suvli  
(*to'linsuv*)

kam suvli

*toshqin*  
davr

Ular umumiy nom bilan **suv rejimi davrlari**  
deb ataladi.

# Davrlar xususiyatlari

Davrlar ining  
o'ziga xos  
xususiyatlari

davom etish  
vaqtি

to'yinish  
manbalari

oqimiga qo'shadigan  
ulushlarining yil  
davomida o'zgarishi  
bilan aniqlanadi

O'z navbatida bular daryo havzasining iqlim  
sharoitiga bog'liqdir.

# Suv rejimining davrlari soni

Suv rejimining davrlari soni turli tabiiygeografik zonalarda joylashgan daryolar uchun turlicha ikkitadan to to'rttagacha bo'lishi mumkin.






Рис. 7. Гидрограф с показанием фаз водного режима: ЗМ – зимняя межень; ЛМ – летняя межень



# Yirik tekislik hududlar daryolaridagi davrlar



# Ba'zi tekislik daryolarida

Ba'zi tekislik daryolarida kuzgi toshqin davri kuzatilmasligi mumkin



Yozgi to'linsuv davri uzoq muddatga cho'ziladigan daryolarda esa yozgi kam suvli davr kuzatilmaydi.

# O'zbekistonning daryolarida

O'zbekistonning Amudaryo,  
Sirdaryo, ularning Surxondaryo,  
Chirchiq kabi nisbatan yirik  
daryolarida esa, asosan, ikkita davr:  
**❑ bahorgi yozgi** to'linsuv davri;  
**❑ kuzgi qishki** kam suvli davr  
kuzatiladi.



Chirchiq



Surxondaryo

# To‘linsuv davri




Yer yuzidagi barcha daryolar oqimining asosiy qismi - 50-80 foizi to‘linsuv davrida oqib o‘tadi.

Shuning uchun ham  
gidrologiyada daryolar suv  
rejimining to‘linsuv davri va  
uning elementlarini o‘rganishga  
alohida e’tibor qaratiladi.



# To‘linsuv davrining moxiyati


**To‘linsuv davri** deb, daryoda suvning ko‘payishi har yili deyarli bir xil mavsumda takrorlanadigan va uzoq vaqt (26 oy) davom etadigan davrga aytildi.



Bu davrda daryo qayirlari suv ostida qoladi.



# To‘linsuv davri turli iqlim mintaqalaridagi daryolarda yilning turli fasllarida kuzatiladi.

Agar daryoning to‘yinishida mavsumiy qor qoplami va muzlik suvlari asosiy o‘rin tutsa, bunday daryolarda to‘linsuv davri bahor va yozda kuzatiladi.



# Bahorgi to'linsuv davri kontinental iqlimli tekislik daryolari uchun xarakterlidir.

Tog' daryolari uchun esa yozgi to'linsuv davri xosdir. Masalan, Pomir, Tyanshan va Kavkaz daryolarida yozgi to'linsuv davri kuzatiladi.



# Musson iqlimli hududlarda va ekvator daryolarida

Musson iqlimli hududlarda (Uzoq Sharq) to'linsuv davri yilning barcha iliq oylarini (bahor va yoz bilan birga) o'z ichiga oladi.



Ekvator daryolarida (Amazonka, Nil, Niger) yomg'ir suvlardan hosil bo'ladigan to'linsuv davri kuz fasliga to'g'ri keladi.



# Daryolarda to‘linsuv davrining qish oylarida kuzatilishi

Bunday rejimli daryolar Janubig’arbiy Osiyo, Avstraliyaning janubiy qismi, Yangi Zelandiya va Shimoliy Afrikada joylashgan.



# To'linsuv davrining asosiy elementlari

- to'linsuv davrining boshlanish vaqtisi,
- ko'tarilish tezligi,
- ko'tarilishning davom etish vaqtisi,
- to'linsuv davrining balandligi va cho'qqisi,



- to'linsuv davrining pasayishi,
- pasayishining davom etish vaqtisi,
- to'linsuv davrining tugash vaqtisi,
- to'linsuv davrining umumiy davom etish vaqtisi,
- to'linsuv davridagi oqim hajmi.

# Toshqin davri

**Toshqin davri** deganda, daryo havzasiga yoqqan jala yomg'irlar natijasida daryodagi suv sathi va sarfining juda tez ortishi va shunday keskin kamayishi tushuniladi.



# Toshqin davrining to‘linsuv davridan farqi

Toshqin davri o‘zining qisqa muddatliligi, oqim hajmining nisbatan kichikligi hamda ayni bir daryoda butun yil davomida turli davrlarda kuzatilishi bilan to‘linsuv davridan farq qiladi.



# Toshqin davrining kuzda, qish va bahor oylarida kuzatilishi

Ba'zi daryolarda toshqin davri kuzda kuzatilsa (Rus tekisligi, G'arbiy Sibir tekisligi daryolari), Qrim va Italiyaning janubiy va o'rta qismi daryolarida qish va bahor oylarida bo'ladi.



# O'rta Osiyo daryolarida toshqinlar kuzatilishi

Tog'li hududlarda, jumladan, O'rta Osiyo daryolarida havo haroratining keskin ko'tarilishi natijasida qor yoki muzliklarning jadal erishi hisobiga ham toshqinlar kuzatilishi mumkin.



# Toshqinlar ba'zi daryolarda yil bo'yи kuzatiladi.

Bunga Karpat, Qora dengiz bo'yи tog'laridan oqib tushadigan daryolarni misol qilib keltirish mumkin.



# Kam suvli davr

**Kam suvli davr** - daryolar suv rejimining to'linsuv va toshqin davrlariga nisbatan kam suvliligi bilan farq qiladigan davridir. Kam suvlilikning asosiy sababi suv toplash havzasidan daryoga kelib tushadigan suv miqdorining keskin kamayishidir.




Daryolarda yozgi va qishki kam suvli davrlar kuzatiladi. Daryolar kam suvli davrda asosan yer osti suvlari hisobiga to'yinadi.

Suv rejimining turlariga ko'ra daryolarni ***oddiy*** va ***murakkab rejimli daryolarga*** ajratish mumkin.

O'z suvini har xil geografik zonalardan yig'adigan katta daryolar uchun (Nil, Amur, Yenisey, Pechora, Dunay va boshqalar) murakkab rejim xosdir.


Bir xil geografik zonada joylashgan o'rta va kichik daryolar oddiy rejimga ega bo'ladi.



# Daryolarni suv rejimi davrlariga ko‘ra guruhlarga ajratish, ya’ni tasniflash mumkin.


B.D.Zaykov MDH hududidagi daryolarni quyidagi 3 ta guruhga bo‘lgan :

- I. to‘linsuv davri bahorda kuzatiladigan daryolar;
- II.to‘linsuv davri yozda kuzatiladigan daryolar;
- III.toshqinli suv rejimiga ega bo‘lgan daryolar.



# Daryolar suv rejimining elementlari

Daryoda oqayotgan suv miqdori, ya'ni suv sarfi, suv yuzasi sathining holati, uning oqish tezligi, harorati, erigan moddalar oqimi miqdori va boshqalar ma'lum omillar ta'sirida vaqt bo'yicha o'zgarib turadi.



Daryoda mana shu qayd etilgan elementlarning birbiriga bog'liq holda o'zgarishi uning suv rejimini ifodalaydi.






Рис. 77. Кривая расходов, скоростей и площадей живых сечений (а) и кривая  $K_{\text{ям}}=f(T)$  (б).  
1 — летние расходы, 2 — зимние.



# Suv sarfi

**Suv sarfi** deb, daryoning ko'ndalang qirqimidan vaqt birligi ichida oqib o'tadigan suv miqdoriga aytiladi. ( $Q$ )  $m^3 / sek$   $l / sek$




# Suv sathi

**Suv sathi** ma'lum bir o'zgarmas, gorizontal holatdagi doimiy "0" tekislikka nisbatan o'chanadigan suv yuzasi balandligidir.(H) , sm



# Suvning oqish tezligi

Suvning oqish tezligi m/s larda ifodalanib, uning qiymatini ko'ndalang qirqimning ayrim nuqtalarida, alohida vertikal (tiklik) lar yoki butun jonli kesma bo'yicha aniqlash mumkin.



Demak, jonli kesmaning ayrim nuqtasida o'lchangan tezlik vertikallar yoki butun jonli kesma uchun aniqlangan o'rtacha tezliklardan qiymati jihatidan farq qiladi.

# Suv sathi tushunchasi

Suv sathi deb-shartli gorizontal  
tekislikdan suv yuzasigacha  
bo'lgan nisbiy balandlikka  
aytiladi

Suv sathining o'lchov birligi santimetr(sm)

# Suv sathini kuzatishdan maqsad

**suv sathini  
kuzatishdan  
asosiy  
maqsad**

gidrotexnik  
inshootlarni  
loyihalash, qurish va  
foydalanish uchun  
kerakli ma'lumotlarni  
olishdir

# Suv sathining o'zgarish qonuniyatlarini bilish zaruriyati

Daryolar, soylardagi suv sathining o'zgarish qonuniyatlarini bilmasdan turib, ularda birorta:

- ko'prik,
- to'g'on,
- kanal kabi suv inshootlarini loyihalash va qurish mumkin emas.



# Suv sathlariga ta'sir etuvchi omillar

Suv sathlari hamma vaqt turli omillar ta'sirida o'zgarib turadi

**ta'sir  
etuvchi  
omillar**



# Kuzatuv muddatlari

Kuzatuv punktining toifasiga qarab :

- to'rt muddatli (02, 08, 14 va 20 soatlarda),
- ikki muddatli (08 va 20 soatlarda),
- bir martalik (08 soatlarda) bo'linadi

Таблица 5.6: Сведения об уровненном режиме

Характерный уровень воды	Минимальный исторический уровень	Максимальный исторический уровень	Уровень образования руслов и проток	НЯ низкой водности	НЯ высокой водности	ОЯ	Уровень выхода воды на пойму	Уровень выхода воды за пределы прирусловой поймы	Минимальная нижняя граница пойда
Уровень над нулевым постом, см (Н.П.)	139	808	50	100	600	650	523	700	10
Примечания									

Таблица 5.7: Сроки наблюдения за уровнем воды

Сроки и интервалы между сроками наблюдений за уровнем воды	Стандартные сроки		Интервал между измерениями в различных диапазонах уровня воды (ЧЧ:ММ)				Интервал между измерениями в различные фазы водного режима (ЧЧ:ММ)										
	Нр срока	Час, мин (ЧЧ:ММ)	Нижне НЯ низкой водности	От НЯ низкой водности до НЯ высокой водности	Выше ОЯ	В период половодья и паводков	В период зимней межени	В период летне-осенней межени									
								1	2	3	4	5	6	7	8	9	
Сроки и интервалы между сроками измерений наблюдателями	-1	8:00	12:00	12:00	12:00	12:00	400	400									
	-2	20:00															
Интервалы между отсчетами по уровнему																	
Примечание																	

Наблюдения по самописцу			
Выключки			
Номер строки	Число	Время час., мин.	Уровень воды, см
-890			
-891			
-892			
-893			
-894			
-895			
-896			
-897			
-898			
-899			
-900			
-901			
-902			
-903			
-904			
-905			
-906			
-907			
-908			
-909			
-отп			

# Suvning haroratini kuzatish muddatlari

Suvning harorati kuniga 2 marta (8, 20) kuzatiladi, ya’ni suv sathiga mos ravishda olib boriladi.

Suvning haroratini o’lchash uchun suv olhash posti qurilgan joyda alohida o’rin ajratiladi. U qirg’oqdan 1,5 m ichkarida va suv yuzasidan 30 sm chuqurlikda o’matiladi.



Daryo kengligi 10 m va undan kichik bo'lsa,  
suvning harorati daryoning o'rtasida o'chanadi.

Suv o'chash postlari vaqtinchalik  
bo'lgan daryolarda suvning harorati  
o'chanmaydi.



# Kuzatish daftarchasi

Kuzatish daftarchasi bir oyga mo‘ljallangan bo‘ladi. Daftarchaga kuzatuvchi suv sathini, havo haroratini, muzlash hodisalarini qayd etib boradi.

Bunda kuzatishlar "0" grafik tekisligiga keltiriladi. Daftarchada suv sathining o‘rtacha kunlik qiymatlari chiqariladi. Oy tamom bo‘lgandan so‘ng kuzatuvchi kuzatish daftarchasini gidrologik stansiyaga ikki nusxada olib kelib topshiradi.

Stansiyaning shu postga biriktirilgan texnik xodimi daftarchani tekshirib, uni birlamchi qayta ishlaydi va quyidagi ishlami bajaradi:

- daftarchani tanqidiy nuqtayi nazardan tekshirish;
- reykalar yoki qoziqlaming orttirmalarini aniq belgilash;
- suv sathini "0" grafikka keltirish;
- kuzatish malumotlari asosida o'rtacha kunli, o'rtacha 10 kunlik, o'rtacha oylik suv sathlarini hisoblash;
- bir oy davomidagi maksimal va minimal suv sathlarini aniqlash;

# E'TIBORINGIZ UCHUN RAHMAT!



NAZARALIYEV DILSHOD  
VALIDJANOVICH



Gidrologiya va  
gidrogeologiya kafedrasи  
dotsenti



+ 998 71 237 0971



[dnazaraliyev@yandex.com](mailto:dnazaraliyev@yandex.com)



NAZARALIYEV DILSHOD